

Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi



Ma'bad Rahbari Iso Oldiga Keldi

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustratsiya qilingan: Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: M. Maillot; Sarah S.

60 ta hikoyadan 41-si

www.M1914.org


Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha


Uzbek

Bir kuni, Iso Ma'badga borganida, odamlar Xudoning Uyiga hurmatsiz munosabatda bo'lishayotganini ko'rdi. Axir Ma'badda ba'zilar hayvonlarni sotishar, boshqalari esa u erda pul almashtirishar edi.




1

Tayoqlardan xivchin yasab, Iso u savdogarlarni Ma'baddan quvib chiqardi. "Bularni bu erdan olib keting," deb buyurdi Iso. "Otamning Uyini savdoxonaga aylantirmang." Iso Otasining Uyini yaxshi ko'rardi.



2



U erdagi rahbarlar Isodan Ma'badni tozalashga huquqi borligini isbotlash uchun mo'jiza ko'rsatishni talab qilishdi. "Bu Ma'badni vayron qiling va Meni uni uch kun ichida qayta tiklayman," deb javob berdi Iso. Bo'lishi mumkin emas! Bu Ma'bad qirq to'rt yilda qurilgan.

3

Ammo Iso O'z tanasi haqida gapirayotgan edi. Ma'bad kabi, Uning tanasi Xudo yashaydigan makon edi. Iso xochda o'lsada, Xudo Uni uchinchi kuni tiriltirishini bilardi.



4



Kech paytida, Ma'bad rahbarlaridan biri Isoning oldiga keldi. Iso ko'rsatgan mo'jizalar tufayli u kishi Isoni Xudo yuborganligiga ishonardi. Nikodimus Isoning oldiga Xudo haqida o'rganish uchun kelgandi.

5



Iso Nikodimusga insonlar Xudoning Shohligiga kirishi uchun qayta tug'ilishlari kerakligini aytdi. Nikodimus tushunolmadi. Ulg'aygan odam yana qanday qilib chaqaloqqa aylanishi mumkin? Bundan tashqari, Nikodimus dindor edi. Dindorlikning o'zi yetarlik emasmi?

6



"Faqat ruhdan tug'ilgan ruhdur," deb tushuntirdi Iso. "Xudoning Ruhi shamol kabidir. Insonlar shamolni ko'ra olishmaydi, va tushunishmaydi ham. Ular faqat shamolning ta'sirini ko'rishadi."

7



Iso Nikodimusga Isroil xalqi ancha oldin Muso payg'ambarga nolishganini eslatdi. "Bizda na ovqat, na suv bor, Xudo bizga bergan nonni yomon ko'ramiz" deb ular nolishgan edi.


8

Insonlarning gunohi Xudoni g'azablantirdi. Xudo ularning orasiga ilonlarni yubordi. Ilonlar ularni chaqqanda, ko'plar vafot etdi.



9

"Biz gunoh qildik. Ilonlardan xalos qilgin deb Xudoga ibodat qilgin," yolvordilar. Shunda Muso ular uchun ibodat qildi. Lekin Xudo ilonlarni olib tashlamadi.



10

Xudo Musoga ilon yasab uni xodaga mahkamlab qo'yishni buyurdi. "Ilon tishlagan odamlardan kimki xodadagi ilonga qarasa, omon qoladi," deb va'da berdi Xudo. Muso bronzadan ilon yasadi va o'sha ilonga qaraganlar shifo topishdi.



11

Iso Nikodimusga Inson O'g'li xuddi bronzadan yasalgan ilon kabi ko'tarilishi kerakligini aytdi.



12

U gunohkorlar uchun xochda o'lishini haqida gapirib berdi.



13

Iso shunday dedi, ...



14



... "Xudo olamni shunchalar sevdiki, O'zining Yagona O'g'lini berdi, toki unga ishongan har bir kishi o'lmay, abadiy hayotga ega bo'lsin."

15



Buning ma'nosi shuki, Isoga ishongan har bir inson Xudoning oilasiga tug'iladi.

16



Balki Nikodimus o'sha kuni kechda Isoning shogirdiga aylangan. Ammo yillar o'tib, Nikodimus xochda mixlangan Xudoning O'g'lini ko'mishga yordam berishi orqali, Isoga ishonganini va Uni sevganini ko'rsatdi.

17



Shundan so'ng, Iso va Uning shogirdlari shimol tomon jo'nab ketishdi. Chunki shunda boshqalar ham Xudoning Shohligi haqidagi xabarni eshitib, Xudoning O'g'li bo'lgan Nosiralik Isoga ishonish imkoniga ega bo'lishardi.

18

Ma'bad Rahbari Iso Oldiga Keldi

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Yuhanno 2-3 boblar,
Sahroda 21-bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!